



# QAROR QABUL QILISH JARAYONIDA ANIQ MA'LUMOTLAR QANDAY AHAMIYATGA EGA?

Namangan davlat universiteti

Menejment yo'naliishi 1-bosqich talabasi

**Hasanova Jasmina Ravshan qizi**

*hasanovajasmina03@gmail.com*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tashkilot va korxonalarda qaror qabul qilish jarayonida aniq, ishonchli va tahlil qilingan ma'lumotlarning ahamiyati yoritiladi. McKinsey, Gartner kabi xalqaro tadqiqotlar hamda O'zbekiston tajribasi asosida faktlarga tayangan boshqaruvning samaradorlikka ta'siri ko'rib chiqiladi. Tahlil va solishtirma metodlar orqali aniq ma'lumotlarga asoslangan qarorlarning raqobatbardoshlik, tezkorlik va barqarorlikka qanday hissa qo'shishi amaliy jihatdan asoslab beriladi. Shuningdek, zamonaviy boshqaruvda raqamli yondashuv va ochiq axborotlar tizimining o'rni ham alohida o'rganiladi.

**Abstract:** This article explores the importance of accurate, reliable, and well-analyzed data in the decision-making processes of organizations and enterprises. Based on international studies by McKinsey, Gartner, and practical cases from Uzbekistan, the paper examines how data-driven management influences efficiency. Using analytical and comparative methods, it is demonstrated how evidence-based decisions contribute to competitiveness, agility, and sustainability. In addition, the role of digital approaches and open data systems in modern management is specifically addressed.

**Keywords:** Decision-making, data-driven management, reliable information, analytical thinking, organizational efficiency, evidence-based decisions, comparative analysis, information quality.

**Kirish.** Zamonaviy boshqaruvda tashkilot va korxonalar faoliyatining muvaffaqiyatli yuritilishi ko'plab omillar bilan bog'liq. Ulardan eng asosiysi —



qaror qabul qilish jarayonining puxta va asosli bo‘lishi hisoblanadi. Qarorlar qanchalik aniq va ishonchli ma’lumotlarga asoslansa, ularning natijalari ham shunchalik samarali va barqaror bo‘ladi. Bugungi tezkor va raqamlashtirilgan davrda axborot oqimining kuchaygani sababli, yetarlicha tahlil qilinmagan yoki noto‘g‘ri ma’lumotlarga asoslangan qarorlar tashkilotlar uchun jiddiy xatarlarga olib kelmoqda.

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, faktlarga asoslangan qarorlar qabul qiluvchi tashkilotlar bozorda ustunlikka erishib, ichki boshqaruvda ham, tashqi aloqalarda ham yuqori natijalarga ega bo‘lmoqda. Ayniqsa, analitik yondashuv va raqamli ma’lumotlardan foydalanish orqali boshqaruv strategiyasini shakllantirish — zamonaviy menejmentning ajralmas qismiga aylangan.

Mazkur maqolada qaror qabul qilish jarayonida aniq, tahlil qilingan va raqamli ma’lumotlarning o‘rni tahlil qilinadi. McKinsey, Gartner, ODIN kabi nufuzli tashkilotlarning tajribalari hamda O‘zbekiston sharoitida kuzatilgan amaliy holatlar asosida mavzuning nazariy va amaliy jihatlari yoritiladi. Shuningdek, bu jarayonning tashkilot samaradorligiga ko‘rsatadigan ta’siri chuqur tahlil qilinadi.

**Tadqiqot materiallari va metodologiyasi.** Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida qaror qabul qilishda aniq ma’lumotlarning ahamiyatini yoritishga xizmat qiladigan ishonchli manbalar tahlil qilindi. Xususan, McKinsey & Company’ning “The State of Organizations 2023” hisobotidagi raqamli boshqaruv va samaradorlikka oid ma’lumotlar, Gartner kompaniyasining ma’lumot sifati va mahsuldarlik bo‘yicha 2022-yilgi tahliliy natijalari hamda Open Data Watch tashkiloti tomonidan tuzilgan ODIN 2024 reytingi asosiy manba sifatida tanlandi. Tadqiqot davomida solishtirma va kontent tahlil metodlaridan foydalanildi. Global tendensiyalar O‘zbekistonning ochiq ma’lumotlar portali orqali mavjud amaliy tajribalar bilan qiyoslandi hamda faktlarga asoslangan boshqaruv yondashuvining samaradorlikka ta’siri nazariy va amaliy asosda baholandi.



**Muhokama va natijalar.** Qaror qabul qilishda aniq ma'lumotlardan foydalanish tashkilot faoliyatining barqarorligi va natijadorligini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Chunki noaniq axborot asosida qabul qilingan qarorlar ko'pincha xatolarga, resurslarning noto'g'ri taqsimlanishiga va ishonchsizlik muhitining kuchayishiga olib keladi. Aniq ma'lumotlar esa tahlilchanlik, tezkorlik va strategik rejalshtirish imkonini beradi.

Xususan, O'zbekiston ochiq ma'lumotlar bo'yicha sezilarli natijalarga erishmoqda. Open Data Uzbekistan portalining ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatimiz 2024-yilgi Open Data Inventory (ODIN) reytingida 198 davlat orasida 12-o'rinni egalladi (Open Data Watch, 2024). <sup>1</sup>Ushbu reytingda davlat ma'lumotlarining ochiqligi, sifati va ulardan foydalanish imkoniyatlari baholanadi. Bu yutuq, O'zbekistonda qarorlar shaffof, ishonchli va aniq ma'lumotlarga asoslangan holda qabul qilinayotganini ko'rsatadi. Bu esa tashkilotlarda jamoaviy ish samaradorligini oshiruvchi, ochiqlik va o'zaro ishonchga asoslangan ishonchli boshqaruv muhitini shakllantiradi.

Shuningdek, aniq ma'lumotlarga tayanish, tezkor va ishonchli qarorlar qabul qilishni ta'minlaydi. McKinsey & Company tomonidan tayyorlangan "The State of Organizations 2023" hisobotiga ko'ra, qarorlarni tez va aniq qabul qiluvchi tashkilotlar:

- operatsion chidamlilikda 2,1 baravar,
- moliyaviy samaradorlikda 2,5 baravar,
- o'sish sur'atlarida 3 baravar,
- innovatsion muvaffaqiyatda esa 4,8 baravar yuqori natijalarga erishmoqda (McKinsey & Company, 2023).<sup>2</sup>

<sup>1</sup> Open Data Watch. (2024). Open Data Inventory 2024 Annual Report. <https://odin.opendatawatch.com>

<sup>2</sup> McKinsey & Company. (2023). The State of Organizations 2023.

<https://www.mckinsey.com/capabilities/people-and-organizational-performance/our-insights/the-state-of-organizations-2023>



Bu ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, raqamli va tahlilga asoslangan boshqaruv tashkilotga nafaqat joriy faoliyatda, balki uzoq muddatli maqsadlarga erishishga zamin yaratadi.. Qarorlarning aniqligi o'sish, foyda va innovatsiyani bevosita belgilaydi.

Yana bir muhim jihat — aniq ma'lumotlar mahsuldorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Gartner kompaniyasining hisobotida qayd etilishicha, ma'lumotlarni to'g'ri boshqaruvchi tashkilotlar 20–25% yuqori mahsuldorlikka erishmoqda (Gartner, 2022). <sup>3</sup>Bu holat xodimlar faoliyatining aniq mezonlar asosida baholanishi, ish yuklamasining oqilona taqsimlanishi va rejalarshirishdagi aniqlik bilan izohlanadi. Bu esa tashkilot ichidagi ish jarayonlarini optimallashtirish imkonini yaratadi.

O'zbekiston misolida qaraydigan bo'lsak, Open budget portalı, Davlat statistika qo'mitasi va boshqa elektron manbalar orqali tahliliy axborotlar tarmog'i shakllanmoqda. Amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, qarorlar fakt va raqamlarga asoslanayotgani sababli subyektiv xatoliklar kamaymoqda. Mas'ul shaxslar strategik rejalarни aniq ko'rsatkichlarga tayanib ishlab chiqmoqda va resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatlari kengaymoqda. Shuningdek, bu tizimlar orqali mas'uliyat, monitoring va natijadorlik oshib, boshqaruv jarayoni yanada tizimli tus olmoqda.

Aniq ma'lumotga asoslangan boshqaruv nafaqat global tendensiyalarga mos keladi, balki O'zbekiston sharoitida ham amaliy ustunliklar keltirmoqda. Aniqligi, sifati va ochiqligi ta'minlangan axborotlar orqali tashkilotlar raqobatbardosh, tezkor va samarali boshqaruvga erishmoqda hamda innovatsion qarorlar qabul qilishda aniqlikka intilmoqda

<sup>3</sup> Gartner. (2022). Future of Work Trends Post-COVID-19. <https://www.gartner.com/en/articles/the-future-of-work-trends-post-covid-19>



**Xulosa.** Qaror qabul qilishda aniq va ishonchli ma'lumotlardan foydalanish tashkilotlar uchun ishonchli boshqaruv, samaradorlik va barqarorlikning muhim omilidir faktlarga asoslangan qarorlar tashkilotlarda strategik rejalshtirishni kuchaytiradi. Shuningdek, mahsuldorlikni oshiradi hamda tezkor va ishonchli boshqaruvni ta'minlaydi. McKinsey va Gartner kabi nufuzli tadqiqotlar, shuningdek, O'zbekistonning ochiq axborot sohasidagi natijalari bu yondashuvning amaliy samarasini yaqqol ko'rsatmoqda.

Kelgusida har qanday tashkilot yoki boshqaruv tizimi raqobatbardosh bo'lishni istasa, qaror qabul qilishda ma'lumotlarga tayanishni ustuvor yo'naliш sifatida qabul qilishi lozim. Axborotlarning aniqligi, ochiqligi va tahliliy yondashuv — samarali boshqaruv va barqaror rivojlanishning asosiy garovidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Davenport, T. H. (2014). Big Data at Work: Dispelling the Myths, Uncovering the Opportunities. Harvard Business Review Press.
2. Gartner. (2020). Better Decision Making Through Data Clarity. Gartner Research. Retrieved from <https://www.gartner.com/en/articles/better-decision-making-through-data-clarity>
3. McKinsey & Company. (2023). The State of Organizations 2023. McKinsey & Company. Retrieved from <https://www.mckinsey.com/.../the-state-of-organizations-2023.pdf>
4. Meakin, T., Palmer, J., Sartori, V., & Vickers, J. (2021). Getting AI to Scale. Harvard Business Review, 99(3), 116–123.
5. Open Data Watch. (2025). Open Data Inventory 2024: Uzbekistan Rises to 12th Place. Retrieved from <https://odin.opendatawatch.com/Report/countryProfile/UZB?year=2024>



6. Odin Analytics. (2022). The Power of Precision: Data-Driven Decision-Making in Modern Organizations. Odin Research.
7. Toshpulatov, B., & Karimov, O. (2020). Axborot texnologiyalari asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish. Iqtisodiy Tadqiqotlar Jurnali, 1(3), 67–71.
8. Yakubov, F. (2021). Qaror qabul qilishda ma'lumot sifati va samaradorlik. O'zbekiston Iqtisodiyoti, 2(4), 22–29.